


DOIMIY TISHLOVDAGI FRONTAL VA CHAYNOV TISHLARINING TUZILISHI.

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Salohiddinova E'zoza

Tishlar inson organizmidagi muhim ovqat hazm qilish tizimining muhim a'zolaridan biridir. Ular og'iz boshlig'ida joylashib, ovqatni kesish, chaynash, maydalash vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, tishlar nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish va yuz shaklini saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Tish 3 qismdan iborat: Toj, bo'yin, ildiz. Tish to'qimalari: Emal, dentin, sement, pulpa. Tish formulasi:




Tish yuzalari. Har bir tishning 5 ta yuzi mavjud: VESTIBULAR (lab yoki lunj)-lab yoki yanoq tomonga qaragan. ORAL (tanglay yoki til)-til yoki tanglay tomoni. 2ta kontakt (MEDIAL-o'rtaga markazga yaqin tomoni, DISTAL-markazdan uzoq tomoni). OKKULYUZION (kesuv yuzasi-frontal tishlar uchun, chaynov yuzasi-jag' tishlar uchun).

KURAK TISHLAR (dents incisive)-Ovqatni kesish uchun mo'ljallangan. 3 ta kichik do'mboq bilan tug'iladi. Markaziy va lateral kurak tishlar

mavjud.har bir jag'da 4 tadan jami 8 ta. Vestibulyar yuzada medial, lateral va markaziy valiklari mavjud. QOZIQTISHLAR(dentis canini)-Har jag'da 2 tadan jami 4 ta. Funksiyasi: ovqatni uzish,kesib olish. Medial,lateral va markaziy valiklari mavjud. Markaziy valik kesuv do'mbog'i bilan tugaydi.Medial kesuv yuzasi lateral kesuv yuzaga nisbatan kichikroq. PREMOLYARLAR-2 do'mboqli(lunj va oral). Pastki 2-premolyar 3 do'mboqli(lunj,medial oral,distal oral).Lunj do'mbog'i kattaroq hisoblanadi.Joylashuvi:har jag'da 4 tadan jami 8 ta. Funksiyasi:ovqatni maydalash va chaynashga yordam beradi. Yuqori jag'da 1-premolyar 2 ildizli, 2-premolyar va pastki jag'da premolyarlar 1 ildizli. MOLYARLAR-yuqori jag'da 3 ildizli,pastki jag'da 2 ildizli har bir jag'da 4 tadan jami 8 ta.

Tishlarning belgilari. Toj burchak belgisi. Medial yuza bilan kesuv qirrasi hosil qilgan burchak o'tkir,lateral yuza bilan kesuv qirrasi hosil qilgan burchak o'tmas bo'ladi. Toj egrilik belgisi. Tish toji vestibulyar yuzasining eng bo'rtiq va qabariq qismi medial yuzaga joylashadi. Ildiz egrilik belgisi. Tish ildizlari lateral tomonga qaragan bo'ladi.



Tishlar inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib,nafaqat ovqatni chaynash va maydalashda,balki nutqni aniq talaffuz qilish hamda yuzning tabiiy shaklini saqlashda muhim rol o'ynaydi.Ularning sog'lom bo'lishi butun organizm salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.Shu sababli tishlarni parvarish qilish va gigiyena qoidalariga rioya etish har bir inson uchun zarurdir.